


Joriyo'quv yilining 15.05.2025 sanasida Buxoro davlat universiteti faollar yig'ingohida iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorant va doktorantlarning "Tafakkur va talqin" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. Konferensiya davlat madhiyasi ijrosi bilan boshlandi.



Anjumanni BuxDU rektori Obidjon Xamidov kirish so'zi bilan ochib berdi. U nutqi davomida bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida oliygohimizda tahsil oluvchi talabalar, magistrlar, izlanuvchilar bir qator yutuqlarga erishayotganlarini ta'kidladi. Shuningdek, xorijiy tillarni biluvchi magistrlar uchun, ayniqsa, ulkan imkoniyatlar mavjud ekanligini aytib o'tdi.



10-1Fiz24 guruh magistrilar uning pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi Jumayeva Mehribon Abduvohidovna bilan birgalikda Buxoro Shahar "Nurli maskan" nomli 27-sonli maktab internatiga tashrifi to'g'risida

### MA'LUMOTNOMA



Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti Fizika kafedrasida Fizika, Matematika ixtisosligi 1-kurs magistrantlari "Pedagogik kreativlik va kompetentlik" fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash va ijtimoiy ko'makka muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonlarini kuzatish maqsadida fan o'qituvchisi Jumayeva Mehribon Abduvohidovna bilan birgalikda Buxoro Shahar "Nurli maskan" nomli 27-sonli maktab internatiga sayyor dars tashkil etishdi. Maktab internati bosh mutaxassisi va bir nechta o'qituvchi xodimlar bilan uyushtirilgan suhbat davomida ushbu maktabning tashkil etilishi tarixi, ushbu maskanda ta'lim olayotgan jazzi o'quvchilar uchun yaratilgan qulayliklar haqida savollarga javob olindi. Maktabning tashqi va ichki tuzilishi jihatdan qulayligi, maktab hududida amalga oshirilgan ko'kalamzorlashtirish ishlari tahsinga sazovordir!

Fizika- matematika va axborot texnologiyalari fakulteti "Fizika" kafedrasida professor-o'qituvchilari, shu yo'nalish magistrantlari hamda 1-3 kurs bakalavr talabalari ishtirokida "12-aprel -Butunjahon aviatsiya va kosmonavtika kuni" munosabati bilan "KOINOTGA PARVOZ - ILM VA JASORAT BAYRAMI" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Tadbirda Bakalavr talabalar bilan bir qatorda fizika magistrantlarimiz ham faol ishtirok etishdi.

Tashkiliy qism a'zolariga chuqur minnatdorchilik izhor etamiz

Fizika kafedrasida mudiri

*M. Z. Saadipov*

